



**QALAMPIR YALPIZ O'SIMLIGINING BIOLOGIYASI VA DORIVORLIK
XUSUSIYATLARI**

БИОЛОГИЯ И ЛЕКАРСТВЕННЫЕ СВОЙСТВА ПЕРЕЧНОЙ МЯТЫ

BIOLOGY AND MEDICINAL PROPERTIES OF PEPPERMINT

Mirzayeva Mutabar Azamovna

Far'ona davlat universiteti dotsenti., q.x.f.n

Muxtorova Mohinur Dilshodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qalampir yalpiz (*Mentha piperita* L.) o'simligining biologik xususiyatlari, morfologik tuzilishi, o'sish sharoitlari hamda ekologik moslashuvchanligi yoritilgan. Shuningdek, o'simlikning kimyoviy tarkibi, biologik faol moddalari va ularning inson salomatligiga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Qalampir yalpizning dorivorlik xususiyatlari, tibbiyotda va xalq tabobatida qo'llanilish yo'nalishlari, farmatsevtika sanoatidagi ahamiyati ko'rsatilishi bilan birga o'simlikning tabiiy shifobaxsh resurs sifatidagi biologik va amaliy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Qalampir yalpiz, *Mentha piperita* L., biologik xususiyatlar, dorivor o'simlik, kimyoviy tarkib, efir moylari, mentol, xalq tabobati, farmatsevtika, shifobaxsh o'simliklar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются биологические особенности растения перечная мята (*Mentha piperita* L.), его морфологическое строение, условия роста и экологическая адаптация. Также научно проанализирован химический состав растения, биологически активные вещества и их влияние на здоровье человека. Раскрываются лекарственные свойства перечной мяты, направления её применения в медицине и народной терапии, а также значение в фармацевтической промышленности. Статья направлена на раскрытие биологической и практической ценности растения как природного лечебного ресурса.

Ключевые слова: Перечная мята, *Mentha piperita* L., биологические особенности, лекарственное растение, химический состав, эфирные масла, ментол, народная медицина, фармацевтика, лечебные растения.

Abstract: This article examines the biological characteristics of peppermint (*Mentha piperita* L.), its morphological structure, growth conditions, and ecological adaptability. The chemical composition of the plant, its biologically active compounds, and their effects on human health are scientifically analyzed. The medicinal properties of peppermint, its applications in modern medicine and traditional healing practices, as well as its importance in the pharmaceutical industry, are also highlighted. The article aims to reveal the biological and practical significance of peppermint as a natural medicinal resource.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Key words: *Peppermint, Mentha piperita L., biological characteristics, medicinal plant, chemical composition, essential oils, menthol, traditional medicine, pharmacy, medicinal plants.*

KIRISH

Bugungi kunda dorivor o'simliklardan samarali foydalanish, ularning biologik xususiyatlari va shifobaxsh imkoniyatlarini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tabiiy o'simlik resurslari asosida tayyorlangan dori vositalari inson salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etib, zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika sohasida keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, tarkibida biologik faol moddalar va efir moylariga boy bo'lgan o'simliklar alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Shunday dorivor o'simliklardan biri — qalampir yalpiz (*Mentha piperita L.*) bo'lib, u labguldoshlar (*Lamiaceae*) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik hisoblanadi.

Qalampir yalpiz o'zining yoqimli hidi, yuqori biologik faolligi va keng dorivorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu o'simlik efir moylari, xususan mentol moddasi bilan boy bo'lib, u tinchlantiruvchi, og'riq qoldiruvchi, antiseptik va ovqat hazm qilishni yaxshilovchi ta'sirga ega. Qalampir yalpiz xalq tabobatida qadimdan turli kasalliklarni davolashda qo'llanib kelinmoqda. Hozirgi kunda esa u zamonaviy tibbiyotda, farmatsevtika sanoatida, kosmetologiya va oziq-ovqat sanoatida keng miqyosda foydalanilmoqda. Shu bilan birga, o'simlikning biologik xususiyatlarini, o'sish sharoitlarini va dorivorlik imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganish uning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi qalampir yalpiz o'simligining biologiyasi, o'sish va rivojlanish xususiyatlari hamda dorivorlik ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritib berishdan iborat. Dorivor o'simliklar ichida o'z ahamiyati bilan ajralib turuvchi o'simliklardan bir qalampir yalpiz bo'yi 30 – 100 sm keladigan, ko'p yillik o't o'simlik hisoblanadi. Poyasi bir nechta, tik o'sadi, to'rt qirrali, barglari cho'ziq tuxumsimon yoki nishtarsimon, o'tkir uchli, arrasimon, notekis qirrali bo'lib, qisqa bandi yordamida poyada qarama-qarshi o'rnashgan. Qizil binafsha rangli mayda gullari poyasi bilan shoxlari uchida g'uj joylashgan boshqosimon to'pgulni hosil qiladi. Yalpizning mevasi – to'rtta yong'oqcha, yalpiz iyun – sentabr oylarida gullaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Dorivor o'simliklarni o'rganish va ularning shifobaxsh xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish masalalari ko'plab olimlar tomonidan yoritib berilgan. Jumladan, Tojimatov T. T. va hammualliflar tomonidan yaratilgan "O'zbekistonning dorivor o'simliklari" asarida respublika hududida keng tarqalgan dorivor o'simliklarning tasnifi, biologik va kimyoviy xususiyatlari hamda amaliy ahamiyati batafsil bayon etilgan. Ushbu manbada labguldoshlar oilasiga mansub o'simliklarning umumiy tavsifi berilib, ularning dorivorlik xususiyatlari ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan bo'lib, qalampir yalpiz o'simligini o'rganishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Mamadaliyev A. Sh.ning "Dorivor o'simliklar ensiklopediyasi" asarida dorivor o'simliklarning keng qamrovli ensiklopedik tavsifi keltirilgan. Muallif o'simliklarning farmakologik xususiyatlari, biologik faol moddalari va xalq tabobatida qo'llanilishiga alohida



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

e'tibor qaratgan. Ushbu manba qalampir yalpizning dorivorlik xususiyatlarini chuqurroq tushunish va uning xalq tabobatidagi ahamiyatini baholashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Nikolaev V. V. tomonidan yozilgan "Fitoterapiya asoslari" asarida dorivor o'simliklar yordamida davolashning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Muallif fitoterapiyaning asosiy tamoyillari, dorivor o'simliklardan foydalanish usullari va ularning inson organizmiga ta'sir mexanizmlarini bayon etadi. Ushbu asar qalampir yalpizning tibbiyot amaliyotida qo'llanilish yo'nalishlarini tahlil qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Abdullayeva N. K.ning "Dorivor o'simliklar va ularning biologik faol moddalarini o'rganish" nomli ilmiy ishida dorivor o'simliklarning biologik faol moddalari, ularning kimyoviy tarkibi va farmatsevtika sanoatidagi ahamiyati yoritilgan. Ushbu manbada keltirilgan ma'lumotlar qalampir yalpiz tarkibidagi efir moylari, xususan mentol moddasining biologik faolligini asoslashda muhim ahamiyatga ega.

Berilgan ma'lumotlarga ko'ra qalampir yalpiz o'simligi biologiyasi va dorivorlik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha yetarli ilmiy asoslar mavjud bo'lib, mazkur maqola ushbu manbalarga tayangan holda mavzuni yanada tizimli va mukammal yoritishga qaratilgan.



NATIJA VA MUHOKAMA

Qalampir yalpiz MDH mamlakatlarida yovvoyi holda uchramaydi. U Ukraina, Belorussiya va Moldaviya Respublikalarida, Rossiyada yalpizning naslchilik navlari Krasnodar o'lkasi va Voronej viloyatida sanoat miqyosida yetishtiriladi, Markaziy Osiyo davlatlarida madaniy sharoitlarda o'stiriladi. Qalampir yalpizning ikki tur xili bor: qora qalampir yalpiz va oq qalampir yalpiz. Oq qalampir yalpizning poya va tomirlari oq yashil, qora qalampir yalpizning poya va tomirlari esa qizil-binafsha rangda bo'ladi. Dorivor mahsulot sifatida, asosan, qora qalampir yalpiz tur xili o'stiriladi. Yalpizning oq tur xilining hidi nozik va yoqimli bo'lgani uchun u parfumeriya (atir-upa) va oziq-ovqat sanoati uchun o'stiriladi. Barglari va poyalarining yuqori tarkibida asosan efir moyi (mentol) bor, xususan o'simlik bargida 2,40 – 2,75 foiz, gul to'plamida 4 – 6 foiz, poyasida 0,3 foiz efir moyi bo'ladi. Qalampir yalpizning yangi navlari tarkibida 4 – 5 foizgacha efir moyi bor. Tabobatda qalampir yalpiz barglaridan oshqozon-ichak yo'llari kasalliklarida antiseptik va yalig'lanishga qarshi vosita sifatida foydalaniladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

Efir moyi antiseptik vosita sifatida tish tozalash kukuni, «korvalol», «validol» tarkibiga kiradi. Qalampir yalpiz qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan. Abu Ali ibn Sino qalampir yalpiz bilan bosh va quloq og'rig'ini davolagan, hamda ovqat hazmini yaxshilash, yaralarni, sariq va boshqa kasalliklarni davolash uchun ishlatilgan. Qalampir yalpiz bargi va efir moyining dorivor preparatlari (damlamasi, nastoykasi va yalpiz suvi) ko'ngil aynishini va qusishni to'xtatishda hamda ovqat hazmini yaxshilashda ishlatiladi. Yalpiz suvi yana og'iz chayqash, dorilar ta'mini yaxshilash uchun qollaniladi. Mentol preparatlari quloq, burun, nafas yo'llari kasalliklarida hamda tish og'rig'ini qoldirish uchun ishlatilgan.

Bargidan damlama, efir moyidan yalpiz suvi, nastoyka tayyorlanadi; mentol migren qalami va validol 1% (izovalerian kislotaning mentol bilan hosil qilgan murakkab efiridagi mentolning 25 – 30 foizli eritmasi) tarkibiga kiradi. Bargi tinchlantiruvchi, o't haydovchi, me'da kasalliklarida ishlatiladigan yig'malar — choylar va qorin og'rig'ini qoldirish uchun ishlatiladigan tabletka va tomchilar tarkibiga kiradi. Mentol ingofen tarkibiga kiradi. Yalpizning boshqa turlari tarkibida ham mentol bor. Yaponiyada ekiladigan *Mentha arvensis* L. var. *piperascens* Horn, ning yer ustki qismida 0,05 foiz efir moyi, moyi tarkibida esa 43 – 90 foiz mentol bo'ladi.

Qora qalampir yalpiz - *Piper nigrum* butun dunyoda ishlatiladigan eng mashhur ziravorlardan biridir. Hindistonda odatda Kaali Mirch nomi bilan tanilgan qora qalampir yalpiz pishmagan yashil rezavorlarning quritilgan shaklidir. Qora qalampir yalpiz A va K vitaminlariga, shuningdek, xun tolalari, kaltsiy, magniy, kaliy, marganets, fosfor va beta-karotinga boy. Qora qalampir yalpiz yog'i asab tizimini mukammal tinchlantiradi va normalizatsiya qiladi.

Qora qalampir yalpiz yog'i uyquchanlik yoki letargiyaga olib kelmaydi. Miya faoliyatini yaxshilaydi va xotirani mustahkamlaydi. Qora qalampir yalpiz urug'ini ko'paytirish bahorda sodir bo'ladi. Uning urug'ini qor erishi bilanoq mart oyining boshida ekish tavsiya etiladi. Keyinchalik ekish mumkin, lekin mavsum oxiriga kelib o'simlik to'liq rivojlana olmaydi va birinchi qishga tayyorlana olmaydi.

Oq qalampir yalpiz efir moyi quritilgan urug'larni qayta ishlash orqali olinadi, qora qalampir yalpiz - *Piperaceae* oilasiga tegishli. Piperin, karyofilin, sabinen, limonen kabi kuchli bioaktiv moddalar mavjud. Shuningdek, u turli xil kasalliklariga qarshi yordam beradigan antiseptik, antioksidant, immunitetni mustahkamlovchi va mikroblarga qarshi fazilatlarga ega. Oq qalampir efir moyi tanaga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi va yoshartirishga yordam beradi.

XULOSA

Qalampir yalpiz o'simligi o'zining biologik xususiyatlari va dorivorlik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Tarkibidagi efir moylari va biologik faol moddalar uni tinchlantiruvchi, oshqozon va ovqat hazm qilishni yaxshilovchi vosita sifatida foydalaniladi. Ma'lumotlarga ko'ra O'simlik xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotda ham keng qo'llaniladi, Shuningdek farmatsevtika sohasida ham muhim ahamiyatga ega.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

Qalampir yalpizni ilmiy asosda o'rganish uning dorivorlik xususiyatidan samarali foydalanishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda qalampir yalpizning dorivorlik xususiyatlari juda ko'p bo'lib, tabobatda qalampir yalpizning bargidan, urug'idan yog'idan keng foydalanish oshqozon ichak kasalliklarini davolashda muhim ahamiyatga ega deb aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tojimatov T. T. va boshqalar. O'zbekistonning dorivor o'simliklari.
2. Mamadaliyev A. Sh. Dorivor o'simliklar ensiklopediyasi.
Nikolaev V. V. Fitoterapiya asoslari.
3. Abdullayeva N. K. Dorivor o'simliklar va ularning biologik faol moddalarini o'rganish.
4. Berdiyev T., Hakimova M. X., Maxmudova G. B. O'rmon dorivor o'simliklari. — Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti, 2016.
5. Sulaymonov I. J., Ergashev D. T. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar. — Namangan, 2020.
6. Xolmatov H. X., Ahmedov O. A. Farmakognoziya. 1-qism. — Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.